



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI SHAXSDA MA'NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti,

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda samarali pedagogik shartlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida yosh davrining psixologik xususiyatlari, ijtimoiylashuv jarayoni, axloqiy ong va xulq-atvor shakllanish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada ma'naviy-axloqiy rivojlanishning pedagogik modeli ishlab chiqilib, tajriba-sinov metodikasi asosida uning samaradorligi asoslanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi qadriyatlarning barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy qadriyatlar; kichik maktab yoshi; pedagogik shartlar; axloqiy ong; refleksiya; tajriba-sinov; shaxs rivojlanishi.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the theoretical foundations and effective pedagogical conditions for developing spiritual-moral values in primary school-age learners. The study examines age-related psychological characteristics, the process of socialization, and the mechanisms underlying the formation of moral consciousness and behavior. A pedagogical model of spiritual-moral development is proposed, and its effectiveness is substantiated through an experimental research methodology. The findings indicate that integrating learner-centered, activity-based, and reflective approaches ensures the sustainable formation of values.

Key words: spiritual-moral values; primary school age; pedagogical conditions; moral consciousness; reflection; experimental study; personality development.

Аннотация: В статье системно анализируются теоретические основы и эффективные педагогические условия развития духовно-нравственных ценностей у учащихся младшего школьного возраста. Раскрываются возрастные психологические особенности, процесс социализации, а также механизмы формирования нравственного сознания и поведения. Разработана педагогическая модель духовно-нравственного развития, эффективность которой обоснована на основе опытно-экспериментальной методики. Результаты исследования подтверждают, что интеграция личностно-ориентированного, деятельностного и рефлексивного подходов способствует устойчивому формированию ценностей.

Ключевые слова: духовно-нравственные ценности; младший школьный возраст; педагогические условия; нравственное сознание; рефлексия; опытно-экспериментальная работа; развитие личности.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli hamda axloqiy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishdir. Globallashuv jarayonlari, raqamli axborot oqimining keskin ortishi, ommaviy madaniyatning kengayishi va turli ijtimoiy omillar yosh avlodning dunyoqarashi, xulq-atvori hamda qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, bolalarning kundalik hayotida ijtimoiy tarmoqlar, multimedia mahsulotlari, reklama va internet kontenti bilan muloqoti erta yoshdanoq ma'naviy mezonlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir etadi. Shu bois ta'lim muassasalari zimmasiga nafaqat bilim berish, balki shaxsning ichki ma'naviy-axloqiy tayanchini mustahkamlash va uning ijtimoiy hayotga ongli moslashuvini ta'minlash vazifasi ham yuklanadi.

Kichik maktab yoshi (odatda 6–10/11 yosh) – bola hayotida o'qish faoliyati yetakchi faoliyatga aylanishi, ijtimoiy tajriba kengayishi va tarbiyaviy ta'sirlar samaradorligi yuqori bo'ladigan muhim bosqichdir. Bu davrda bola o'qish, yozish, hisoblash kabi akademik ko'nikmalar bilan bir qatorda jamiyat qoidalari, axloqiy me'yorlar, muloqot madaniyati, burch va mas'uliyat kabi tushunchalarni ham ongli ravishda o'zlashtira boshlaydi. Aynan shu yoshda "yaxshi–yomon", "mumkin–mumkin emas", "adolat", "halollik", "hurmat", "mehr-shafqat" kabi kategoriyalar bolaning ongida barqaror mazmun kasb etib, xulqiy qarorlarida yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy rivojlanishida oilaviy tarbiya, maktab muhitining ma'naviy iqlimi, o'qituvchi shaxsining namunaliligi, sinfdoshlar bilan munosabatlar, rag'bat va talab muvozanati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bolada qadriyatlar abstrakt tushuncha sifatida emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda – o'yin, hamkorlik, bahs-munozara, yordam, bo'lishish, navbat kutish, rostgo'ylikni tanlash kabi jarayonlarda shakllanadi. Demak, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tarbiyasi faqat tushuntirish yoki nasihat bilan cheklanmay, faoliyatga asoslangan va tarbiyaviy vaziyatlar orqali izchil tashkil etilishi lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiyani yanada samarali yo'lga qo'yish uchun tizimlilik va izchillikni kuchaytirish zarur. Tarbiyaviy ishlarni muntazam tashkil etish, axloqiy mazmunni dars va sinfdan tashqari faoliyatga integratsiya qilish, o'qituvchi hamda ota-onalar hamkorligini mustahkamlash bu jarayonning samaradorligini oshiradi. O'quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog'langan axloqiy tushunchalar barqarorroq shakllanadi va amaliy xulqda namoyon bo'ladi. Shu sababli kichik maktab yoshida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish ilmiy asoslangan pedagogik shartlarni aniqlash hamda ularni ta'lim amaliyotiga mos metod va texnologiyalar orqali joriy etishni talab etadi.

Mazkur masala pedagogika, yosh psixologiyasi, aksiologiya va ta'lim metodikasi kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda "qadriyat" tushunchasi shaxs va jamiyat hayotini tartibga soluvchi, xulq-atvorni yo'naltiruvchi me'yoriy-ma'naviy mezonlar tizimi sifatida talqin etiladi. Qadriyatlarning shaxsiylashuvi – ya'ni bolaning ichki e'tiqodiga aylanishi – dastlab tashqi me'yor va talablarni qabul qilish, so'ngra ularni ongli ravishda anglab, shaxsiy pozitsiya darajasiga ko'tarish jarayonida amalga oshadi. Shu jihatdan qadriyatlarni shakllantirish ularni faoliyat, tajriba va tarbiyaviy vaziyatlar orqali hayotga tatbiq etishni taqozo etadi.

MAZVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda kichik maktab yoshi axloqiy rivojlanishning eng faol bosqichi sifatida ko'rsatiladi. Piaget qarashlarida bola qoidalarga ko'r-ko'rona bo'ysunishdan asta-sekin qoidaning mazmuni va mohiyatini tushunishga o'tadi; bu esa maktab amaliyotida "mumkin–mumkin emas" kabi talablarni berish bilan cheklanmasdan, qoidaning sababi, oqibati va ma'nosini muhokama qilishni taqozo etadi. Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari konsepsiyasi esa kichik maktab davrida axloqiy hukm va adolat haqidagi tasavvurlar murakkablashib borishini asoslaydi. Biroq manbalarda alohida ta'kidlanadiki, axloqiy me'yorni bilish doimo ham axloqiy xulq bilan mos kelavermaydi; shuning uchun tarbiya jarayonida axloqiy bilimlar bilan birga odat, ko'nikma va ijtimoiy tajribani shakllantirish muhimdir.

Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bola rivojlanishida ijtimoiy tajriba avval muloqot va hamkorlik jarayonida tashqi shaklda namoyon bo'ladi, so'ng ichki psixik tuzilma sifatida mustahkamlanadi. Bu fikr kichik maktab yoshida qadriyatlarni shakllantirishda sinf jamoasidagi hamkorlik, guruhli faoliyat, rol taqsimoti, sinf qoidalarini birgalikda ishlab chiqish kabi yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa namuna (model)ning kuchli ta'sirini ko'rsatadi: o'qituvchi va ota-onaning kundalik xatti-harakati, muloqot madaniyati, adolatli munosabati bolada halollik, hurmat, mas'uliyat, mehr-shafqat kabi sifatning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Erikson konsepsiyasida esa kichik maktab davrida bolaning o'ziga ishonchi, o'z qadrini his etishi, "men ham qila olaman" degan ichki tayanchning shakllanishi muhim ekani ta'kidlanadi; demak, tarbiyaviy ishlar bosim va tanbehga tayanmasdan, rag'bat, qo'llab-quvvatlash va adolatli baholash bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Pedagogik adabiyotlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya ko'pincha shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy va tarbiyaviy muhit yondashuvlari bilan izohlanadi. Bu yondashuvlarning umumiy g'oyasi shundaki, qadriyatlar "tayyor mahsulot" sifatida berilmaydi; bola ularni tushunadi, tajribadan o'tkazadi, his etadi va asta-sekin shaxsiy e'tiqodga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan ilmiy manbalarda "pedagogik shartlar" tushunchasi natijaga erishishni ta'minlaydigan omillar majmui sifatida talqin qilinadi: tarbiya mazmuni (qadriyatlar tizimi), metod va vositalar (muloqot, hamkorlik, vaziyatli topshiriqlar), muhit (sinfning ma'naviy iqlimi), subyektlar hamkorligi (maktab–oil–jamo), tashkiliy shakllar (dars va sinfdan tashqari ishlar) hamda baholash va monitoring (refleksiya, kuzatuv, mezonlar). Ayniqsa, kichik maktab yoshida qadriyatlar tarbiyasi samaradorligi tarbiyaviy vaziyatlarni tizimli yaratish, me'yor va talablarda izchillik, muloqot madaniyati, o'qituvchining namunaliligi va refleksiyani muntazam yo'lga qo'yish bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda (jumladan, Lickona konsepsiyasida) axloqiy tarbiya "bilim–his–xulq" birligi sifatida qaralib, maktabda ma'naviy-axloqiy tarbiya alohida tadbirlar doirasida emas, balki butun ta'lim jarayoniga singdirilgan madaniyat bo'lishi kerakligi asoslanadi. Bu yondashuv boshlang'ich sinf darslarida axloqiy mazmunni integratsiya qilish, matnlar va hayotiy misollar, muammoli savollar, bahs va munozaralar orqali qadriyatlarni anglashga olib keladigan metodik mexanizmlarni talab etadi.



Milliy pedagogik merosda ham ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi markaziy o'rinda turadi. Xususan, Abdulla Avloniy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining tayanchi sifatida talqin qilib, maktab tarbiyasida odob-axloq, mas'uliyat, vijdon va ijtimoiy burchni kuchaytirish g'oyalarini ilgari suradi. Sharq mutafakkirlarining qarashlarida ham komil inson, adolat, saxovat, halollik, ilmga hurmat kabi g'oyalar tarbiya mazmunining barqaror poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Normativ-huquqiy manbalarda (ta'limga oid qonunlar, davlat ta'lim standartlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha hujjatlar) ham shaxs tarbiyasi, fuqarolik mas'uliyati va axloqiy yetuklikni ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash tendensiyasi kuchayib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar majmuasidan kompleks ravishda foydalanildi. Ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat hamda so'rovnoma usullari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasi aniqlashtirildi va baholandi. Tajriba-sinov jarayonida qadriyatlariga yo'naltirilgan tarbiyaviy vaziyatlar tizimi ishlab chiqilib, ta'lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etildi. Olingan natijalar taqqoslama tahlil hamda sifat ko'rsatkichlari asosida umumlashirildi. Baholash mezonlari sifatida axloqiy ong, xulqiy odat, empatiya va refleksiya ko'rsatkichlari asosiy indikatorlar etib belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni dars va tarbiyaviy faoliyat mazmuni, sinf muhitining ma'naviy iqlimi, o'qituvchi-o'quvchi muloqoti, sinfdan tashqari ishlar yo'nalishi hamda maktab-oila hamkorligi kesimida tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliyotda ma'naviy-axloqiy tarbiya ayrim hollarda epizodik shaklda – bayramlar, tadbirlar yoki alohida suhbatlar doirasida tashkil etiladi. Bunday yondashuvda qadriyatlar asosan og'zaki shaklda bayon qilinadi, biroq ular o'quvchining kundalik xulqiy tajribasiga yetarlicha integratsiya qilinmaydi. Natijada ba'zi o'quvchilar "to'g'ri" va "noto'g'ri" tushunchalarini nazariy jihatdan izohlab bera olsalar-da, real vaziyatlarda mustaqil xulqiy tanlov qilish, o'zini boshqarish va boshqalarni inobatga olish ko'nikmalarini to'laqonli namoyon eta olmaydilar. Mazkur holat ma'naviy-axloqiy tarbiyani tizimli, faoliyatga hamda refleksiyaga asoslangan tarzda tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu asosda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlar tizimi aniqlashtirildi. Avvalo, sinfda qadriyatlarga yo'naltirilgan tarbiyaviy muhitni shakllantirish muhim omil sifatida asoslandi. Bunda "hurmat", "adolat", "hamkorlik", "mas'uliyat", "mehr" kabi qadriyatlar shior darajasida emas, balki sinfning real qoidalari, odatlari va kundalik faoliyatida aks etishi lozim. Masalan, sinf qoidalarini o'quvchilar bilan hamkorlikda belgilash, navbatchilik va jamoaviy mas'uliyatni oqilona taqsimlash, muloqot madaniyatiga rioya qilish hamda kelishmovchiliklarni madaniy hal etish tartibini yo'lga qo'yish muhitni qadriyatlarga moslashtiradi. Bunday yondashuv bola uchun qadriyatlarni "his qilinadigan" va "ko'rinadigan" ijtimoiy tajribaga aylantiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni faqat tarbiyaviy mavzularni tushuntirish bilan cheklanmasligi lozim. Qadriyatlar faqat "bilim" sifatida berilganda, o'quvchi ularni takrorlashi mumkin, biroq real hayotiy vaziyatlarda mustaqil xulqiy qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Demak, jarayonning markaziy vazifasi – "bilish" va "amal qilish" o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashdan iborat. Ushbu uyg'unlikni shakllantirish uchun tarbiya jarayoni bolaga qadriyatni his qilish, boshdan kechirish va amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradigan faoliyatlar orqali tashkil etilishi zarur.

Natijalar pedagogika va yosh psixologiyasi qonuniyatlari bilan uyg'unlashadi: kichik maktab yoshida shaxsiy sifatlar avvalo tashqi me'yorlar va ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi, keyinchalik esa ichki pozitsiyaga aylanadi. Shu bois tarbiyaviy muhitning ma'naviy iqlimi – sinf qoidalari, muloqot madaniyati, adolatli talab va rag'bat, jamoaviy mas'uliyat – qadriyatlarning barqaror shakllanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bola qadriyatlarni ko'proq og'zaki bayonlardan emas, balki real munosabat va amaliy namuna orqali o'zlashtiradi. O'qituvchi va ota-onaning so'z-amal birligi, odobli muomala, halollik va va'daga sadoqat kabi fazilatlar bolada qadriyatlarning tabiiy ravishda shakllanishiga xizmat qiladi. Talablarning izchilligi va adolatli munosabat esa ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlaydi.

Tarbiyaviy vaziyatlar tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha olingan natijalar muhim metodik xulosaga olib keladi: kichik yoshdagi bolalar uchun qadriyatlar abstrakt tushuncha darajasida qolmasligi kerak. "Rostgo'ylik", "hurmat", "mas'uliyat", "mehr", "adolat" kabi qadriyatlar real hayotga yaqin vaziyatlarda mustahkamlanadi. Navbatga rioya qilish, o'yinchoqni bo'lishish, dars jarayonida boshqani diqqat bilan tinglash, xatoni tan olish, sinfdoshga yordam berish kabi kundalik vaziyatlar muntazam va maqsadli tashkil etilganda, bolalarda barqaror xulqiy odatlar shakllanadi. Shunday qilib, qadriyatlar tarbiyasida yirik mavzulardan ko'ra kundalik hayotdagi vaziyatlarni to'g'ri pedagogik boshqarish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda ushbu jarayon samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlar tizimli ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya faqat ma'lumot berish, nasihat qilish yoki alohida tadbirlar bilan cheklanib qolgan taqdirda, qadriyatlar o'quvchining ongida nazariy bilim sifatida saqlanib, real xulq-atvorda yetarlicha barqaror namoyon bo'lmashligi mumkin. Shu bois qadriyatlar tarbiyasining bosh maqsadi bolada "to'g'ri bilish"ni emas, balki to'g'ri ish tutish ehtiyoji va xulqiy odatini shakllantirishdan iborat ekanini asoslandi.

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshi shaxsning axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va xulqiy me'yorlarni ichki qabul qilish jarayoni eng faol kechadigan davr ekanini tasdiqlaydi. Mazkur bosqichda tarbiyaviy ishlar izchil, maqsadli va faoliyatga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarning kompleks va o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishiga bog'liqligi asoslab berildi:

- sinfda qadriyatlarga mos tarbiyaviy muhitni shakllantirish;
- tarbiyaviy vaziyatlar va faoliyatlar tizimini yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi shaxsining namunaliligi va adolatli munosabatini ta'minlash;
- muntazam refleksiya va o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish;
- maktab-oila hamkorligini mustahkamlash.

Shuningdek, maqolada qadriyatlarni rivojlantirishning uch bosqichli modeli taklif etildi:

- birinchi bosqichda o'quvchilar qadriyatlarning mohiyatini anglaydi;
- ikkinchi bosqichda ular qadriyatlarni faoliyat va tarbiyaviy vaziyatlar orqali amaliyotda sinab ko'radi;
- uchinchi bosqichda esa refleksiya, rag'bat hamda izchil talablar asosida qadriyatlar barqaror xulqiy odatga aylanadi.

Natijadorlikni aniqlash uchun axloqiy ong, axloqiy xulq, empatiya, ijtimoiy munosabat va refleksiya mezonlari belgilandi hamda ularga mos indikatorlar tavsiya etildi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari kichik maktab yoshida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning eng muhim sharti tarbiyaviy jarayonni alohida tadbirlar majmui sifatida emas, balki kundalik dars va sinf hayotiga singdirilgan uzluksiz pedagogik tizim sifatida tashkil etishdan iborat ekanini tasdiqlaydi. Aynan shunday yondashuvda qadriyatlar o'quvchining nutqida emas, balki uning amaliy xatti-harakati, munosabatlari va ijtimoiy mas'uliyatida barqaror namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-637, 23.09.2020. – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-595, 16.12.2019. – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-4646908>.
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari: normativ hujjat, ro'yxat raqami 3032, 03.07.2018. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi normativ-huquqiy hujjatlar milliy bazasi.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1932.
8. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
9. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
10. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.